

## TOG'AY MURODNING "OT KISHNAGAN OQSHOM" QISSASIDA QO'LLANGAN METAFORALARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

**Mahmudjonov Shohruxbek Sohibjon o'g'li**

Qo'qon universiteti Andijon filiali O'zbek va rus filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi  
[mahmudjonovshohruxbek97@gmail.com](mailto:mahmudjonovshohruxbek97@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yozuvchi Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasida qo'llanilgan metaforalar lingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilingan. Ma'no ko'chish usullaridan biri bo'lgan metaforalar haqida nazariy jihatdan ma'lumotlar berilgan va misollar keltirilgan. Maqolada keltirilgan misollarning barchasi "Ot kishnagan oqshom" qissasidan olingan.

**Kalit so'zlar:** metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, nomsiz narsaga nom berish, ikkilamchi nomlash.

**Abstract:** This article presents a linguistic and pragmatic analysis of metaphors employed in the story "Ot kishnagan oqshom" by the writer Togay Murod. The paper provides theoretical insights into metaphor as one of the mechanisms of semantic transfer and illustrates them with relevant examples. All examples discussed in the article are drawn from the aforementioned story.

**Keywords:** metaphor, metonymy, synecdoche, functional correspondence, naming of unnamed entities, secondary nomination

**Аннотация:** В данной статье осуществляется лингвистический и прагматический анализ метафор, использованных в повести писателя Тога Мурода «Ot kishnagan oqshom». Представлены теоретические сведения о метафоре как одном из способов семантического переноса, а также проиллюстрированы соответствующие примеры. Все приведённые в статье примеры заимствованы из указанной повести.

**Ключевые слова:** метафора, метонимия, синекдоха, функциональная соотнесённость, наименование безымянных объектов, вторичная номинация.

Ma'lumki, so'zlar asl ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noni ham anglatadi. So'zlar ko'chma ma'noda qo'llanganda predmet-hodisalarni atabgina qolmay, o'sha predmet va hodisalarni tasvirlash vazifasini ham bajaradi. Ko'chma ma'no tildagi so'zlarning to'g'ri ma'nosi negizida vujudga keladi. Ko'chma ma'noli so'zlar ilmiy va rasmiy uslubdan tashqari barcha uslublarda qo'llaniladi. So'zlarning ko'chma ma'nosi faqat kontekstda reallashadi.

Nom ko'chishi asosida yangi ma'no hosil bo'lishi barcha mutaxassislar tomonidan e'tirof etilsa-da, lekin nom ko'chishiga olib keluvchi hodisalar, ularning turi masalasidagi qarashlar turlichadir. Ba'zi adabiyotlarda nom ko'chishiga olib keladigan hodisaning ikki turi ko'rsatilsa, ayrim adabiyotlarda bunday hodisalarning undan ko'p turlari ko'rsatiladi. Lingvistik adabiyotlarning ko'pchiligida esa (ayniqsa, keyingi vaqtlarda nashr etilgan adabiyotlarda) nom ko'chishiga olib keluvchi hodisaning to'rt turi keltiriladi: metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik.

Biz ushbu maqolada taniqli yozuvchi Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasida qo'llanilgan metaforalarni tahlil qilishga harakat qilamiz. Adib qissalarida metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, ramz, kinoya va boshqa tasviriy vositalardan unumli foydalangan. Yozuvchi asarlarida keng qo'llanilgan ko'chim turlaridan biri metaforadir. Badiiy tildagi obrazlilikni yuzaga chiqarishda, voqea-

hodisalarning aniq, yorqin va ishonarli tasvirlanishida metaforaning o'rni beqiyosdir. Dastlab metafora o'zi nima va u qanday usullar bilan hosil qilinadi degan savolga javob berib o'taylik. Metafora yunoncha "metaphora" so'zidan olingan bo'lib, ko'chirish, ko'chirma, istiora degan ma'nolarni anglatadi. Metafora so'zni ko'chma ma'noda qo'llashning bir turidir. Metaforada ma'lum predmet yoki voqea-hodisaning biron tomoni yoki ayrim belgisi bilan boshqa predmet yoki voqea-hodisaning o'xshashligi aniqlanadi. Bunday holda predmetlarning rang, shakl, harakat-holat xarakteri, o'rin va paytga munosabati jihatdan o'xshashligiga asoslaniladi". Metaforada so'z ma'nosi o'zgaradi, tushuncha yo tasavvur esa tamoman o'zgarib, balki uning dastlabki ma'lum belgisi qolgan bo'ladi.

*Siyohdonni olib, muallimning yuziga otdim. Tegmadi. Keyin tashqari otildim.*

Ushbu misolda "otildim" so'zi orqali metaforik ma'no ko'chishi yuz bergan, ya'ni otilmoq so'zining asl ma'nosi biror narsani uzoq joyga uloqtirish ma'nosini anglatadi. Bu gapda esa "otilmoq" so'zi ko'chma ma'noda qo'llanilib, harakatga nisbatan o'xshashlikni bildirgan va yugurmoq ma'nosida qo'llangan.

Metafora yo'li bilan ko'chirishning asosiy ko'rinishlari quyidagicha bo'ladi:[1.80]

1. Bir narsaning nomi boshqa bir narsaga shakliy o'xshashlik asosida ko'chiriladi.

... "Quyosh zarrin **kokillarini** yoyib, ufqdan bosh ko'tardi..."

*Birodarlar, chavandozlar nimaga **etagini** qoqib ketayapti?*

2. Bir narsaga xos belgining nomi boshqa bir narsadagi belgiga ko'chiriladi.

*Birodarlar, siz so'ramang, men aytmayman... Oti Momosuluv emish. Yuzlari kulchadaymi, yo suluvmi? Ko'zlari qorami, yo zig'ir gulidaymi? Qoshlari **quyuqmi?***

Bu o'rinda "quyuq" so'zi belgiga nisbatan ko'chma ma'noda qo'llangan, ya'ni Momosuluv qoshlarining qalinligi quyuq so'zi orqali ifodalangan.

*Albatta, otga suv beradi-da, bo'lmasa benzin berarmidi? **Qup-quruq** didaktika!*

*Shoir kitob bitadi. Kitobida bir joyi **yoqimsiz** bo'lsa, shoir qalam bilan shartta-shartta o'chiradi, **yoqimli** qiladi.*

3. Bir narsaga xos harakatning nomi boshqa bir narsa harakatiga ko'chiriladi.

*Men tinmas, Momosuluvning **ko'ngliga-da kiribman!** Oshiqona-oshiqona qadamlar bosib, **ko'nglini ovlabman.***

Berilgan gapda ko'ngliga kirmoq va ko'nglini ovlamoq so'zlari ko'chma ma'noda qo'llanishi natijasida metaforik usulda ma'no ko'chishi yuz bergan.

*Bir kuni deng, hayt-hayt, deya qo'ylarni soyga haydadim. Qo'ylar o'zini **qirga urdi.***

"Quyosh zarrin **kokillarini** yoyib, ufqdan **bosh ko'tardi...**"

*Shoir kitob **bitadi.** Kitobida bir joyi yoqimsiz bo'lsa, shoir qalam bilan shartta-shartta o'chiradi, yoqimli qiladi.*

*Birodarlar, sara ot, chavandoz aql-zakovatidan **mino bo'ladi.** Sara ot, chavandoz qalb qo'ridan **mino bo'ladi!***

*Bir suruv qo'y sotdim. Pulini **belimga o'radim.** Namoz chavandozni **oldimga solib,** Oboqliga jo'nadim.*

A. Avelichevning fikricha, [2.56] metafora so'zlovchining quyidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi: birinchidan, bir narsani nomlash, ikkinchidan, nomlanganda ham nomning "gapiradigan bo'lish zaruriyati". Bu yerda nomlash atamasi ostida bir-biridan mohiyatan farq qiluvchi ikki xil hodisa nazarda tutiladi.

1. Nomsiz narsani nomlash.

2. Nomli narsaga qayta nom berish (ikkilamchi).

Nomsiz narsani nomlash o'z nomidan ham ko'rinib turganidek, kontekstda biror narsani so'zlovchi o'ziga moslab nom berishidir.

Ikkilamchi nomlash zaruriyati nimadan kelib chiqadi? Bu zaruriyat mavjud bo'lgan nom so'zlovchi nuqtayi nazaridan ayni nutqiy sharoitni ta'minlay olmay qolganda yuzaga keladi. Ikkilamchi nomlashda so'zlovchining subyektiv munosabati ham ifodalanadi, natijada metaforik ko'chma ma'noga ega bo'layotgan so'z yoki birikmalar konotativ ma'noning hosil bo'lishiga xizmat qiladi. Ikkilamchi nomlash quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir: nutqni qisqa va lo'nda qiladi, aniqlashtiradi.

Agar muayyan so'zda ayni jarayon (ikkilamchi) da qatnashish imkoniyati bo'lmasa, u bu jarayonda qatnasha olmaydi. Bunday imkoniyat esa so'z sememasi (ma'nosi)ning tarkibiy qismlari – semalarining nisbiy mustaqillikka erisha olish qobiliyatidir. Ya'ni ikkilamchi nominatsiya uchun zaruriy semalar yorqinlashadi, mustaqillashadi va mutanosib semaga ega bo'lgan boshqa bir so'z bilan sintagmatik aloqaga kirishadi. Natijada ikkilamchi nominatsiya yuzaga keladi.[3.9] Masalan, “Ot kishnagan oqshom” qissasida qo'llanilgan *oyoq* so'zi quyidagi semalarga ajraladi:

- 1)insonga xos a'zo;
- 2)eng quyi;
- 3)tayanch.

*Yaxshisi, bunday qilamiz. Yo'lda oyoq ilamiz. Qishloqqa qorong'ilatib-qorong'ilatib kirib boramiz.*

*Ko'plar ko'pkaridan qo'lini yuvib, qo'ltiqqa urib ketdi.*

*Qosh qoraydi. Odam odamni tanimaydigan bo'ldi.*

*Yo'lni kesib o'tadigan ariqqa keldim.*

Yuqorida berilgan misollardagi “oyoq ilmoq”, “qo'lini yuvib, qo'ltiqqa urmoq”, “qosh qoraydi”, “yo'lni kesmoq” so'zlari ibora bo'lib, mantiqan bir-biriga bog'lanmaydi, lekin ana shu nutq vaziyatiga mos berilgan iboralar orqali ham metaforik ma'no yuzaga kelgan. Masalan, ko'plar ko'pkaridan qo'lini yuvib, qo'ltiqqa urib ketdi jumlasida qo'llangan ibora orqali ifodalangan metaforik ma'no odamlarning xafaligini, ko'pkaridan qiziqishlari qolganini bildirish uchun xizmat qilgan. Metaforalarni qaysi o'rinda va qanday holatda ishlatish ham yozuvchi Tog'ay Murodning o'ziga xos ijodiy qobiliyati hisoblanadi. Metaforalar iboralar orqali ifodalanishidagi g'ayriodatiylik kitobxon diqqatini darhol o'ziga jalb etadi, o'ziga xos oxor tutilmaganlik, odatiy emaslik tasvirdagi obrazlilik ustida kitobxonni bir on to'xtashga majbur qiladi. Asardagi pragmatik ko'rinishlarning mana shunday g'ayriodatiyligi, “noto'g'riligini”, sirliligi badiiy asar matnida lisoniy-estetik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Tog'ay Murod asarlaridagi g'ayriodatiy va jonli metaforalar personajlarning ruhiy holati, tabiat tasviri, qahramonlarning voqelikka munosabatini obrazli ifodalash, voqea-hodisalarni ishonarli va yorqin tasvirlashda muhim ahamiyatga ega. Metaforalar og'zaki so'zlashuv uslubida ham keng qo'llaniladi. Metaforalarni qo'llash so'zlovchining lisoniy mahoratini, nutqiy ta'sirchanlikni, emotsionallikni oshirishga, fikrni ixcham, lo'nda va aniq tushunilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. U. Tursunov., A.Muxtorov., Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent. 1992. 400 b.
2. А. К. Авеличев. Заметки о метафора. Вест – Москва. Ун-та. Сер. 10. Филология. 1973-N1-с. 25-28.

3. Кабулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номзоди...дисс. автореф. – Toshkent. 2000. 24 б.
4. Т. Murod. Ot kishnagan oqshom. – Toshkent. 2001. 69 б.